

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeve Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISHDA INNOVATSIYANI JORIY ETISH MASALALARI

Mirzayev Kobil Nosirjonovich

Nam MTI, "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarida an'anaviy va innovatsion texnologiyalar iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarida innovatsion texnologiyani joriy qilish samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, an'anaviy texnologiya, innovatsion texnologiya, sof foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: The article compares the economic indicators of traditional and innovative technologies in small business entities that produce products. Also, proposals and recommendations on the efficiency of introducing innovative technology in small business entities are given.

Key words: innovation, traditional technology, innovative technology, net profit, profitability, labor productivity, product cost, economic efficiency.

Аннотация: В статье сравниваются экономические показатели традиционных и инновационных технологий в субъектах малого предпринимательства, производящих продукцию. Также даются предложения и рекомендации по эффективности внедрения инновационных технологий в субъектах малого предпринимательства.

Ключевые слова: инновация, традиционная технология, инновационная технология, чистая прибыль, рентабельность, производительность труда, себестоимость продукции, экономическая эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotida innovatsion tizim shu darajada jadal rivojlanmoqdaki, iqtisodiyotda innovatsiyaning qamrov darajasi kundan-kunga o'sib bormoqda va natijada innovatsiya xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi mamlakatning asosiy boyligiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek, "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo'ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz."

Respublikamizda innovatsiyani qo'llab-quvvatlash hamda uni kichik biznes subyektlarida qo'llash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bu tizim tobora mustahkamlanib, uning respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rni, ish bilan ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'i yildan-yilga oshmoqda. Bugungi kunda innovatsiyani ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasida sanoatning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, kichik biznes subyektlarida zamonaviy va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.



Biroq, innovatsion texnologiyani poyabzal ishlab chiqarishda qo'llash hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Poyabzal ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish va uni amaliyotda qo'llashning quyidagi ko'rsatkichlarda hisoblash maqsadga muvofiqdir:

1. 1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish hajmi, juft;
2. 1 juft poyabzalning jami ishlab chiqarish xarajati, ming so'm;
3. 1 juft poyabzal sotish bahosi, ming so'm;
4. Yillik poyabzal ishlab chiqarish hajmi, juft;
5. Jami ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm;
6. Yillik poyabzal ishlab chiqarish qiymati, ming so'm;
7. 1 juft poyabzal tannarxi, ming so'm;
8. 1 juft poyabzalga sarflangan mehnat, kishi/soat;
9. Jami sof foyda, ming so'm;
10. 1 juft poyabzalga sof foyda, ming so'm;
11. Bir kishi-soatda 1 juft poyabzalga sof foyda, ming so'm;
12. Rentabellik, %.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati bo'yicha klassik iqtisodiyoti maktabi namoyandasi A. Smitning ayirboshlash va ishlab chiqarish nazariyasi o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi innovatsion ishlarida qayd etilgan. Iqtisodchi olim D. Rikardo qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar va resurslarni tejashga asoslangan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini asoslab berdi.

Rus olimi N.D. Kondratev "Uzoq to'lqinlar" nomli kashfiyotida ushbu to'lqinlar bilan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda texnologiya va vositalarning tubdan o'zgarishi bo'lgan texnologik jarayonlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Keyinchalik uning nazariyasi S. Yu. Glazev tomonidan davom ettirilib, u texnologik jarayonlarning o'zgarishini jamiyatning innovatsion yangilanishi bilan bog'ladi.

Avstriyalik olim Y. A. Shumpeter innovatsiyaning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili sifatidagi ahamiyatini asoslab berdi, shuningdek, innovatsiyaning bozor iqtisodiyotida aylanishini tadqiq qildi. Uning fikricha, iqtisodiyot evolyutsiyasi tuzilishi va yangisini ishlab chiqish eski tizimni yo'q qilish orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodchi olim M. V. Posner o'z ilmiy asarida firma texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lishini, bu esa tannarxning kamayishiga olib kelishini ko'rsatdi. M. Yu. Porter esa o'zining innovatsiyaga bo'lgan ilmiy yondashuvida, dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotining 100 dan ortiq tarmoqlari raqobatbardoshligini tahlil qilish asosida korxonalar o'zlarining raqobatbardosh ustunliklariga, jumladan, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni yaxshilashga e'tibor qaratishlari zarur, degan xulosaga keldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Poyabzal ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlariga innovatsion texnologiyani jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, kichik biznes subyektlarining yillik statistik hisobotlarini tahlil qilish va taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion texnologiyaning mohiyati poyabzal ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun barcha zarur texnologik sharoitlarni yaratib berish asosida xomashyo resurslaridan yuqori va sifatli poyabzalni ishlab chiqarish, shuningdek, poyabzal ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va mahsulot rentabelligini oshirishdir.

Innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini amalda qo'llanilayotgan an'anaviy texnologiya bilan bajarilgan ko'rsatkichlarga taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Bunda biz innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini qancha o'sganligini bilishimiz mumkin va innovatsion texnologiyaning an'anaviy texnologiya bilan qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.



1-javdal. “Kosonsoy Al-Aziz” MChJdagi a’naviy texnologiyada hamda “ELEGANT PODOSHYA KLASS” MChJdagi innovatsion texnologiyada poyabzal ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qiyosiy tahlili¹.

T/R	Ko'rsatkichlar	An'anaviy texnologiya bo'yicha	Innovatsion texnologiya bo'yicha	Innovatsion texnologiyaning an'anaviy texnologiyaga nisbatan farqi	
				+, -	%
1	1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish quvvati, juft	100	594	494	494
2	1 juft poyabzalning jami ishlab chiqarish qiymati, ming so'm	75,7	70,2	-5,5	-7,2
3	1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish qiymati, ming so'm (1x2)	7570,0	41698,8	34128,8	450,8
4	1 juft poyabzal narxi, ming so'm	103,5	103,5	0	0
5	Yillik poyabzal ishlab chiqarish hajmi, juft	28000	47907	19907	710,9
6	Jami sotilgan mahsulot tannarxi, ming so'm, (5x8)	1923600,0	3022931,7	1099331,7	57,1
7	Yillik poyabzal ishlab chiqarish qiymati, ming so'm (2x5)	2119600,0	3363071,4	1243471,4	58,7
8	1 juft poyabzal tannarxi, ming so'm (6:5)	68,7	63,1	-5,6	-8,2
9	Yillik haqiqatda sarflangan ish vaqti, kishi-soat	36146	36146	0	0
10	1 juft poyabzalga sarflangan mehnat, kishi-soat (5:9)	0,77	1,33	0,55	71,4
11	Jami sof foyda, ming so'm (7-6)	196000,0	340139,7	144139,7	73,5
12	1 juft poyabzalga sof foyda, ming so'm (4-8)	34,8	40,4	5,6	16,1
13	Bir kishi-soatga sof foyda, ming so'm (11:9)	5,42	9,41	3,99	73,5
14	Rentabellik, % (11:6x100)	10,2	11,3		1,1

Bugungi kunda bozorda sifatli va arzon poyabzalga talab tobora oshib bormoqda. Poyabzalga bo'lgan talabning qondirilishi hozirgi kunda bozor iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 7-17 yoshgacha o'smirlar poyabzalini ishlab chiqarish va iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirish borgan sari qiyinlashib bormoqda. Chunki, mamlakatimizda aholining kundan-kunga o'sib borishi barobarida poyabzal ishlab chiqarish hajmini mos ravishda oshirishga to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakuniga viloyatda jami aholi soni 2994671 nafarni tashkil etib, yosh guruhlari bo'yicha ajratilganda 7-17 yoshdagi o'smirlar soni 630838 nafarni yoki jami aholiga nisbatan 21,1 foizni tashkil etadi. 2019-yil yakunida esa jami aholi soni 2752880 nafarni tashkil etgani holda 2023-yilga qaraganda 241791 nafarga yoki 8,1 foizga oshganligini qayd etish mumkin. Shuningdek, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 7-17 yoshdagi o'smirlar soni 71895 nafarga yoki 11,4 foizga oshgani tahlil jarayonida ma'lum bo'ldi. Namangan viloyati tumanlari kesimida 2019–2023-yillardagi 7-17 yoshdagi o'smirlar sonini quyidagi 2-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

1 “Kosonsoy Al-Aziz” MChJning 2023-yil yakuni bo'yicha statistik hisoboti ko'rsatkichlari.

2-jadval. Namangan viloyatida 2019-2023-yillarda 7-17 yoshdagi o'smirlar soni bo'yicha ma'lumot².

Tumanlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2019-yilga nisbatan farqi	
						(+, -)	Foizda
Namangan viloyati bo'yicha jami aholi soni	2752880	2810843	2867441	2931056	2994671	241791	108,1
<i>Shundan,</i>							
Jami 7-17 yoshdagi o'smirlar soni	558943	573895	591298	611068	630838	71895	111,4
Namangan sh.	132210	135508	141563	146569	151575	19365	112,8
Mingbuloq	25707	25910	26322	26886	27450	1743	106,3
Kosonsoy	42976	44566	45615	46761	47907	4931	110,3
Namangan	35673	36913	37642	39189	40736	5063	112,4
Norin	31218	32435	33717	34908	36099	4881	113,5
Pop	42116	43319	44593	45704	46815	4699	110,0
To'raqo'rg'on	41112	42219	43730	45522	47314	6202	113,1
Uychi	44249	45427	46263	47795	49327	5078	110,3
Uchqo'rg'on	33632	34554	35498	36948	38398	4766	112,4
Chortoq	39365	40608	42179	43821	45463	6098	113,4
Chust	46915	48026	49276	51398	53520	6605	112,3
Yangiqo'rg'on	43770	44410	44900	45567	46234	2464	105,3

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, 2019–2023-yillarda viloyatda aholi soni oshib borgan. Ayniqsa, Kosonsoy tumanida 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 7-17 yoshdagi o'smirlar soni 4931 ga yoki 110,3 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tumanda poyabzal ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlari tomonidan 7-17 yoshdagi o'smirlarga to'g'ri keluvchi 30-39 o'lchamdagi poyabzallar ishlab chiqarish chiqarish hajmini oshirishni taqozo etadi. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Kosonsoy tumanidagi jami 47907 nafar 7-17 yoshdagi o'smirlarni to'liq poyabzal bilan ta'minlash uchun shuncha miqdorda poyabzal ishlab chiqarishni taqozo qilmoqda. SHuning uchun, "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda zamonaviy innovatsion texnologiyadan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi. Bunda, Namangan viloyati Uychi tumanidagi "ELEGANT PODOSHA KLASS" MChJdagi innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda amalda foydalanilayotgan an'anaviy texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslandi.

An'anaviy va innovatsion texnologiyalarni taqqoslash jadvali ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda amalda foydalanilayotgan an'anaviy texnologiya asosida 1 kunda jami 100 juft poyabzal ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, 1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish qiymati 7570,0 ming so'mni tashkil etadi. Shuningdek, 2023-yilda 1 juft poyabzal tannarxi 68,7 ming so'm bo'lgani holda, uning sotilish narxi 103,5 ming so'm bo'lgan va kichik biznes subyektida mavsumiy ish rejasi asosida mehnat faoliyatini amalga oshirgan jami 56 nafar ishchi xodimlar tomonidan jami 36146 soat vaqt birligi sarflab jami 28000 juft 7-17 yoshgacha o'smirlar poyabzali ishlab chiqarilgan.

Xitoyning "QUANZHOU BAIYU MACHINERY TECHNOLOGY CO." LTD korxonasidan CF-1610T markali lazerli innovatsion texnologiya "ELEGANT PODOSHA KLASS" MChJ tomonidan 2022-yilda 15 ming AQSh dollariga sotib olingan bo'lib, hozirda ushbu texnologiyaning ishlash funktsiyasi korxona amaliyotiga tadbiiq etilmoqda. CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning ishlab chiqarish samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda uning texnik pasporti ma'lumotlaridan foydalanildi. CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning 1 soatlik poyabzal ishlab chiqarish hajmi 150 juftni va 1 kunlik elektr sarfi 14 kv.ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlardan foydalangan holda "Kosonsoy Al-Aziz" MChJda poyabzal ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari qayta hisoblanib tahlil qilindi.

"Kosonsoy Al-Aziz" MChJ misolida CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning 1 kunlik poyabzal ishlab chiqarish hajmi 594 juftni tashkil qiladi, ya'ni tumandagi jami 7-17 yoshdagi o'smirlar sonidan kelib chiqib kichik biznes subyektida 2023-yilda ishchi-xodimlar tomonidan jami ishlagan ish vaqti hisobga olingan. Demak, tumaning 7-17 yoshdagi o'smirlarning poyabzalga bo'lgan talabi 47907 juftni tashkil etadi. Vaholangki, tumanda faqat 7-17 yoshdagi o'smirlar uchun 30-39 o'lchamli poyabzal ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyekti "Kosonsoy

2 Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti. www.namstat.uz



Al-Aziz” MChJ bo‘lib, 2023-yilda jami 28000 juft poyabzal ishlab chiqarilgan va talabni to‘liq qondirish uchun qo‘shimcha 19907 juft poyabzal ishlab chiqarish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, 1 juft poyabzalning tannarxiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, an‘anaviy texnologiyada 68,7 ming so‘m bo‘lsa, innovatsion texnologiyada 63,1 ming so‘mni tashkil qiladi. Sababi, CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning kunlik elektr sarfi 14 kv. bo‘lib, hozirgi vaqtdagi xarajat summasi 6300 so‘mni tashkil etadi va 1 juft poyabzalga 10,6 so‘mga to‘g‘ri keladi. An‘anaviy texnologiyada esa bu xarajat 1063 so‘mni tashkil etadi. Shuningdek, an‘anaviy texnologiyada kunlik band xodimlari soni 3 kishini tashkil etsa, innovatsion texnologiya esa 1 kishini band qiladi va natijada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga³ asosan poyabzal ishlab chiqarish tannarxi tarkibidagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar summasi kamaygan.

2023-yil yakunida “Kosonsoy Al-Aziz” MChJ sof foydasi an‘anaviy texnologiya bo‘yicha 196000,0 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada 340139,7 ming so‘mni tashkil etadi va sof foydaning miqdori 73,5 foizga oshgan. SHuningdek, rentabellik ko‘rsatkichi an‘anaviy texnologiyada 10,2 foiz bo‘lgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada 11,3 foizga erishish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyada mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha ijobiy natijaga erishilgani tahlil davomida kuzatildi. Jumladan, an‘anaviy texnologiyada 1 kishi 0,77 juft poyabzal ishlab chiqarishga 1 soat vaqt sarflagan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada esa ushbu vaqt oralig‘ida 1,33 juft poyabzal ishlab chiqarish mumkin bo‘ladi. SHuningdek, an‘anaviy texnologiyada 1 kishiga 1 soatda 5,42 ming so‘m sof foyda to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyada esa 1 kishiga 1 soatda 9,41 ming so‘m yoki 73,5 foizga ko‘p sof foyda to‘g‘ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil yakunida shuni ta‘kidlash joizki, 7-17 yoshdagi o‘smirlar poyabzalini ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarida innovatsion texnologiyani ishlab chiqarish amaliyotiga joriy qilishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif etamiz:

1. Kichik biznes subyektlarida poyabzal ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
2. Poyabzal ishlab chiqarishga bevosita aloqador bo‘lgan infratuzilma obyektlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida qayta jihozlash va modernizatsiya qilish;
3. Zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda poyabzal ishlab chiqarishda import o‘rnini bosuvchi arzon va sifatli bo‘lgan xomashyo resurslarining kelib chiqish manbaalarini aniqlash va uni qayta ishlab chiqarish jarayoniga yo‘naltirish;
4. Poyabzal ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlari sonini oshirish;
5. Kichik biznes subyektlarida amalda foydalanilayotgan texnologiyalarni yangi va zamonaviy innovatsion texnologiyalarga almashtirish;

Poyabzal ishlab chiqarish sanoatida sof raqobat muhitini oshirishda kichik biznes subyektlari rolini oshirish; Xalqaro bozorda kuchli bozor pozitsiyasiga ega bo‘lgan poyabzal ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda poyabzal ishlab chiqarish bo‘yicha istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va shu loyihalar asosida investitsiya mablag‘larini o‘zlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-sonli qarori.
3. Smit, A. Issledovanie o prirode i prichinakh bogatstva narodov / A. Smit. – Moskva: Izdatelstvo sotsialno-ekonomicheskoy literatury, 1962. – 684 s.
4. Rikardo, D. Nachalo politicheskoy ekonomiki i nalogovogo oblozheniya / D. Rikardo; per. s angl. P. Sraffa. – Moskva: Eksmo, 2007. – 960 s.
5. Bolshie tsikly kon'yunktury i teoriya predivideniya: izbrannye trudy / N. D. Kondratev, Yu. V. Yakovets, L. I. Abalkin. – Moskva: Ekonomika, 2002. – 767 s.
6. Glazyev, S. Yu. Teoriya dolgosrochnogo tekhniko-ekonomicheskogo razvitiya / S. Yu. Glazyev. – Moskva: VIdar, 1993. – 310 s.

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-sonli qarori.



7. Shumpeter, Y. A. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya / Y. A. Shumpeter; per. s nem. V. S. Avtonomov, M. S. Lyubskiy, A. Yu. Chepurenskiy; per. s angl. V. S. Avtonomov i dr. – Moskva: Eksmo, 2007. – 864 s.
8. Posner, M. V. International Trade and Technical Change / M. V. Posner. // Oxford Economic Papers. New Series. – 1961. – Vol. 13, No. 3. – P. 323-341. – URL: <https://www.jstor.org/stable/2662034>.
9. Porter, M. Yu. Mezhdunarodnaya konkurentsia. Konkurentnye preimushchestva stran / per. s angl. – Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1993. – 896 s.
10. “Kosonsoy Al-Aziz” MChJning 2023-yil yakuni bo'yicha statistik hisoboti va Uychi tumanidagi “ELEGANT PODOSHVA KLASS” MChJ tomonidan Xitoyning “QUANZHOU BAIYU MACHINERY TECHNOLOGY CO.” LTD korxonasidan sotib olingan CF-1610T markali innovatsion texnologiyaning texnik pasporti ma'lumotlari.
11. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti. www.namstat.uz.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

